

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH NAZARIYALARI

Choriyeva Mavjuda Bayramali qizi
Qashqadaryo viloyati Nishon tumani
18-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolamda boshlang'ich sinf bolasining o'qishdagi erkin muloqati, undagi qiziqishi, xotira kengligi hamda o'qish metodikasi adabiy ta'lim metodikasi sifatida ish ko'rish lozimligi, boshlang'ich sinfda o'qish adabiyot o'qitish sestimatik kursiga tayyorlovchi predmet sifatida o'qitilishi aytib o'tilgan.

Kalit so'z: Sinf, metodika, ta'lim, maktab, ko'nikma, o'qituvchi, mahorat.

Hozirgi adabiy ta'limni o'qitishda maktab oldiga o'sib kelayotgan yosh avlodni yuz yillar oldindan insoniyat tarixi davomida yaratilgan va shu vaqtgacha to'ldirib kelingan madaniyatni egallash, bolani real hayotga tayyorlash, ongli ravishda kasb tanlashiga erishish, o'quvchilarni atrofdagi kishilar bilan madaniyatli muomala qilishga o'rgatish talabini qo'ymoqda.

Adabiyot inson ichki go'zalgini ochib beradigan hilqat hisoblanadi. O'quvchilarning ongini go'zal qiladigan hamda erkin fikrlashga undaydigan fan bu o'qish adabiyot darsliklari hisoblanadi.

Ifodali o'qish shu jumlasidandir. Hikoyani bir qismini ifodali o'qitiladi. Eng yaxshi xikoyachi tanlovi. Hikoya matnga yaqinlashtirib qayta hikoyatiladi.

Kim ko'proq o'qiydi musoboqalari uyishtirishlar esa o'quvchilar zexnlarini yaxshilaydi. Hikoyalar o'qitish metodikasi ham o'z ichiga oladi.

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi obrazlar talqinlangan bo'lib bu o'quvchilarni dunyo qarashini kengaytiradi va o'zgarishiga sabab bo'ladi desam adashmayman. Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hikoyalar orqali o'zlari ham erkin hikoya tuzadigan nutqi ravon o'quvchilarga aylanishadi.

She'r yodlash maqol, topishmoqlar ham shular jumlasidan har bir berilgan topshiriqlarni uyga vazifa sifatida ham berib borilsa o'quvchilar bu topshiriqlarni bajarish uchun asarni bir necha marta o'qiydi. O'qish ko'nikmalari takomillashadi. Asar mazmunini qayta hikoyalash yuqorida aniqlagan so'z va iboralarini nutqida qo'llaydi, nutqi rivojlanadi.

Matn ustida ishlash tarbiyaviy xulosa chiqarish bilan yakunlanadi. Bunda asar qahramonlariga tavsif beriladi, bu orqali o'quvchilar o'zlariga hozirgi davr nuqtai nazar bilan yondashib tegishlicha hulosa chiqaradilar;

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining tashkil etilishining yana bir turi bu sahnalashtirilgan teatrlar sahna ko'rinishlari asosida bo'lishidadir, o'qish darsi o'quvchilarning nutqiga katta ta'sir qiladi. Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarining xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea- hodisalari haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi.

Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo'lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetining tushuntirishga bog'lab olib boriladi. Bir so'z bilan aytganda boshlang'ich sinfda olingan barcha bilimlar kelajaklarimizni qay manzilni tanlashlarini belgilab beradi. Shuningdek muomila madaniyati, nutq faoliyatini rivojlantiradigan fanlar esa jamiyatda o'rin topishiga yordam beragi hozirgi zamon talabi bo'lgan ravon nutqlilik mustaqil yoshlarimizni belgilab beradi, buning uchun biz malakali kadrlar yosh avlodni savodga tayyorlashdan charchamaymiz.

Yurtimizda ko'zatilayotgan islohatlar natijasi biz yosh pedagog kadrlar orqali nomoyon bo'lishi yosh avlodni bilimga savodga to'la tarbiyalashimiz kerakligi biz uchun g'ururdir, buning uchun o'quvchilarning imkoniyatlarini va asosiy faoliyatlarini hisobga olgan holda o'qitishning har bir bosqichida maktab adabiy ta'limini tayanch maqsadlarni belgilab olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. K.Qosimova va b. Ona til o'qitish metodikasi. Nashr 2019.
2. G'ulomov X. O'quvchilarning matn ustida ishlashi. Til va adabiyot ta'limi. 1994.
3. Bakiyeva H. Boshlang'ich sinflarda so'z ustida ishlash metodikasi.T- Istiqlol 2013.